

O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNINING SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUHITNING TA'SIRI

Ilhomova Dilfuza Raxmatovna

Toshkent viloyati Toshkent tumani 14-maktab psixologi

Hozirgi paytda agressivlik muommosi psixologiyadagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bog'liq bo'lib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprofilaktikasi bo'yicha xorijda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va ulardan amaliyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va maktab psixologlari so'ngi paytlarda bolalarda agressivlik juda ko'payib ketganini ta'kidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning o'tish davrida kuzatiladi. Ya'ni har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommalarga to'la bo'ladi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida kichik maktab yoshi o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. bo'yicha samarali ishlash uchun zarur shart-sharoitlar aniqlandi. Bu shartlarni hisobga olgan holda tuzatish va rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan. (Башкатова.Ю.А.) E.L. Golenisheva 2005-yili kandidatlik dissertatsiya ishida boshlang'ich maktab o'quvchilarining agressivligi muammosini mikro-ijtimoiy omillar (ota-onalar, o'qituvchilar, tengdoshlar) aloqalarini o'rganish nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan. U o'z tadqiqoti davomida kichik maktab yoshi bolalarining individual psixologik xususiyatlarini o'rgangan va natijada agressiv boshlang'ich maktab o'quvchilarining asosiy shaxsiy xususiyatlari: past ijtimoiy normativlik, zaif muloqot faolligi, mustaqillik, beparvolik, qo'rqqoqlik, vaziyat tashvishi, o'zini-o'zi baholashning yuqoriligini aniqlagan. Agressivlikda gender farqlari borligi ham aniqlangan. Agressiv o'g'il bolalarga past darajali verbal intellekt, yuqori darajada vaziyattan tashvishlanishi, ishonchsiz va beparvoligi bilan

ajralib turadi. Agressiv qizlar uchun qattiqqo'llik va ishonchsizlik xos.

Y.A. Bashkatova o'z tadqiqoti jarayonida kommunikativ universal ta'lim harakatlari boshlang'ich maktabning 2-3 sinf o'quvchilari tajovuzkorligiga ta'sir qilishini aniqlagan. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ universal ta'lim harakatlari past darajada va agressivlik yuqori darajada bo'lgan, shuningdek kommunikativ yo'nalish jihatidan ham frustratsiya holati yo'nalishlari va reaksiya turlarida farq qilgan. Shuning uchun faqat korreksion guruhni emas, balki barcha sinfdoshlarni rivojlantirish va tuzatish ishlariga jalb qilish kerak. Ota - ona munosabatlarining avtoritar turi kichik maktab yoshidagi bolalarda umumiy kommunikativ ta'lim harakatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi va atrofidaqilariga nisbatan agressiv muloqati isbotlangan. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar bilan ishlashni rivojlantirishda ota-onalar ham ishtirok etishi kerak. 2-3-sinf o'quvchilarining kommunikativ universal ta'lim harakatlarini rivojlantirish. Agressiv reaksiyalarning namoyon bo'lish kuchida ham gender farqlari mavjud. O'g'il bolalar jismoniy tajovuz reaksiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, yoshi kattaroq qizlar esa tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi: og'zaki, bilvosita va negativizm. Ehtimol, bu o'g'il bolalarning tajovuzkorligi "tashqi tomonga", qizlar esa "ichkariga" qaratilganligi bilan bog'liqdir.

Oilaviy muhitning nosog'lomligi. Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar, o'zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, oiladagi rahbarlik uslubining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va noto'liq bo'lgan oilalarning mavjudligi o'smirlarda agressiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Agressiv xulq-atvor natijasi qotillikkacha olib borishi mumkin. Tadqiqotchilardan biri bo'lgan F.Getting qotillar ko'p hollarda to'liq bo'lmagan oilalardan chiqqanini aniqlagan. Uning "Oiladagi agressiv bolalarni o'rganish" bo'yicha olib borgan maxsus tadqiqotining natijalariga ko'ra, noto'liq oilalarda o'ta qahrli, qo'pol, agressiv va shu bilan birga voyaga yetmagan jinoyatchilar kelib chiqayotganligini alohida ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha to'liq oilalarda ham, noto'liq oilalarda ham sog'lom yoki nosog'lom oilaviy muhit mavjud bo'ladi. Oiladagi doimiy janjallar, mojarolar oilada nosog'lom

muhitni vujudga keltiruvchi bosh omillardir.

Ommaviy axborot vositalari agressiya kuchayishiga ta'sir qilmoqda. Namoyish etiluvchi jangari filmlar, ko'rsatuvlar, internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar, jangari o'yinlarni o'yinlash agressiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagi sabablarni bartaraf etish maqsadida ota-onalarga va o'smirning yaqinlariga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- O'smirning mustaqil bo'lishiga, tashabbus ko'rsatishiga sharoit yaratish;
- Ularga nima qilishni buyurmaslik kerak, balki qanday yordam berishni so'rash kerak, ya'ni uni qo'llab-quvvatlashni, unga bo'lgan ishonchni his qilishi;
- O'smir bilan ota-onasi, yaqinlari tez-tez ularning hayotdagi maqsadlari haqida gaplashishi;
- Oilada ota-ona tajovuzkorlik darajasini iloji boricha pasaytirish;
- Ishonchli munosabatlar o'rnatish;
- O'smirning sevimli mashg'ulotlari bo'lsa, uning quvvatini shu tomonga yo'naltirish, uni yutuqlari va mehnatsevarligi uchun doim maqtab rag'batlantirib turish lozim.

Demak, hozirgi kunda o'smirlarda namoyon bo'layotgan agressiv harakatlarlaning paydo bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorning oldini olish muammolarini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatidagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi kun talabiga aylanib bormoqda. Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo'ladi. Oilada otaning bolalariga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo'ladi. Loqaydlik yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi. Ota sustkashlik qilib,

burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o'rgatmagani oqibatida o'z farzandidan zarur ijobiy hislatlarni shakllantira ololmagan. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo'lib o'sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o'smirlik payti bo'lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o'rganadi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga solinsa, tarbiyali do'stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yiladi. Odatda onalar o'z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo'l qo'ygan xatolari, qo'l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo'rqmasdan qilaverishi mumkin. Mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to'g'ri-noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo'lib o'sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga undaydi. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, ma'suliyatsiz bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo'lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Bolalik chog'ida farzandning qalbi o'ta yumshoq va ta'sirga beriluvchan bo'ladi. Shu bois diniy ta'limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko'ngli nozik bo'lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko'rsatishga chaqiriladi. Diniy ta'limotlarda ota-ona o'z farzandlariga ta'lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Tarbiyadan tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqish va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e'tibor qaratishi talab etiladi. Ya'ni, ular farzandi maktab yoki kollejdani keyin qaerga borishi, nima bilan shug'ullanishini nazorat qilish lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy

immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Башкатова.Ю.А. Развитие коммуникативных универсальных учебных действий у младших школьников с разным уровнем агрессивности. Автореф. дисс. кандидата психологических наук: 19.00.07/ Ярославль-2014. С-6
2. Бютнер К. Жить с агрессивными детьми.– М., 1991.– С. 56
3. Фурманов.И.А. “Детская агрессивность: Психодиагностика и коррекция”- Минск: Ильин В.П., 1996. –С.12
4. Невенчаный. В.С. “Понятие агрессивного поведения в современной психологии”, Наука и современность. – 2011. – №10–1. – с. 300
5. Rasulova.F.F. The psychological features of aggressive behavior in teenagers: Dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on psychological sciences: 19.00.06/ -Tashkent.2018. P.8-9.